



Yevropa Ittifoqi moliyavy  
ko'magi bilan ta'minlangan



unicef

Har bir bola uchun

SURXONDARYO VILOYATIDA INKLIZIV TA'LIM, IJTIMOIY XIZMATLAR VA  
HUQUQIY YORDAMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

UNICEF TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN, YEVROPA ITTIFOQI  
VA UNICEF TOMONIDAN MOLIYALASHTIRILGAN LOYIHA

# BMTNING BOLA HUQUQLARI

## TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYASI VA UNING BOLALAR UCHUN AHAMIYATI

Mazkur nashr Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi yordamida tayyorlangan. Uning mazmuniga O'zbekiston  
Respublikasi Adliya vazirligi va UNICEF mas'uliyati bo'lib, bu masala bo'yicha Yevropa Ittifoqining nuqtai  
nazarini aks ettirmasligi mumkin.

## HURMATLI BOLAJON



**Hozirda dunyoda 8 milliarddan ortiq odam istiqomat qiladi, ulardan 2,7 milliardga yaqini bolalardir.**

Bolalar ham, kattalar singari, inson huquqlarining egasidir. Bolalar huquqlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi qisqa tarixiy davrni (taxminan yuz yil) o'z ichiga oladi, lekin aynan shu davrda bola huquqlari bo'yicha muhim xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Siz o'z qo'lingizda ushlab turgan risolada inson huquqlari sohasidagi eng universal xalqaro hujjatlardan biri – BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi haqida so'z boradi.

Broshyurada Konventsiyaning qabul qilinishi tarixi, uning asosiy qoidalari hamda dunyoda va O'zbekistonda Bolalar huquqlariga rioya qilish va himoya qilish to'g'risidagi konventsiyaning ahamiyati haqida ma'lumotlar bilan tanishishingiz mumkin.

Broshyura o'smirlar, ularning ota-onalari, o'qituvchilari, bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar va bolalar huquqlari bilan shug'ullanadigan barcha odamlar uchun foydali va qiziqarli bo'ladi.

## BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining qabul qilinishi tarixi

Ko'p asrlar davomida bolalar "kichik kattalar" sifatida qabul qilin-gan. Bolalar og'ir ishlarda mehnat qilishgan va katta ishchilar bilan bir xil miqdordagi ish soati davomida ishlashgan.

Bolalarning noto'g'ri xatti-harakatlari va xatolari uchun talab katta-lar bilan bir xil bo'lgan.



Bolalar majburiy ta'lim bilan ta'minlanmagan va bolalarni zo'ravon-lik va beshafqat munosabatdan himoya qilish kerakligi haqida tushun-chha mavjud bo'Imagan.


Qadim zamonlardan beri bolalar o'z ota-onalariga yoki ular qara-mog'ida bo'lgan boshqa shaxslarga tegishli bo'lib, "ularning g'am-xo'rligi va irodasi obyekti" ekanligiga ishonishgan.

Bolalarning qonunlarga ko'ra hech qanday huquqlari bo'Imagan, shuning uchun faqat kattalar o'z farzandlari uchun nima yaxshi va nima yomonligini hal qilishlari mumkin bo'lgan.

Bolalarning inson va bola huquqlari borligi haqidagi g'oya faqat 20-asr boshlarida paydo bo'ldi. 1924-yil 26-sentabrda Millatlar Ligesi (Birlashgan Millalar Tashkiloti (BMT)dan oldingi tashkilot) **Jeneva deklaratsiyasini** (Jeneva deklaratsiyasi) qabul qildi. Bu insoniyat tarixida bolalarning alohida huquqlari va kattalarning bolalar oldidagi majburiyatlari haqida gapirgan birinchi xalqaro hujjat edi.




Eglantayn Jebb



Yanush Korchak

Jeneva deklaratsiyasini tayyorlashda «Save the Children» tashkiloting asoschisi ("Bolalarni qutqaring") Buyuk Britaniyalik jamoat arbobi **Eglantayn Jebb** katta rol o'ynadi. Deklaratsiyani yozishda muallif polshalik buyuk gumanist va pedagog **Yanush Korchakning** "bolalarni tug'ilishidan boshlab shaxsiyati va qadr-qimmatini hurmat qilish zarur" ligi haqida gapirgan g'oyalaridan ilhomlangan.

Jeneva deklaratsiyasi har bir bolaning rivojlanish, yordam va himoya qilinish huquqini tan oldi. Biroq, u faqat maslahat, tavsiya xarakteriga ega bo'lib, qonuniy kuchga ega hujjat emas edi. Bu uning qoidalari majburiy emasligini anglatadi.



Bola huquqlari bo'yicha Jeneva deklaratsiyasi 1924-yil.

1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul qildi.**




*Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil.*

Ushbu hujjatda barcha odamlar (shu jumladan kattalar va bolalar) asosiy fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy inson huquqlariga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Bu inson huquqlari har kimga tug'ilishi bilanoq ta'minlanishi, odamlar inson huquqlarining buzilishidan himoyalanishi kerak. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi muhim xalqaro hujjat bo'lib, inson huquqlari bo'yicha boshqa qonuniy kuchga ega bo'lgan hujjatlarni vujudga kelishiga asos yaratib berdi.

Bolalar huquqlarining paydo bo'lishi tarixidagi yana bir muhim hujjat - 1959-yil 20-noyabrda BMT Bosh Assambleyasini tomonidan qabul qilingan **Bola huquqlari deklaratsiyasidir.**



*Bola huquqlari deklaratsiyasi 1959-yil.*

Ushbu hujjat Jeneva Bola huquqlari deklaratsiyasida ko'rsatilgan bolalar huquqlari ro'yxatini sezilarli darajada kengaytirdi.

## **U birinchi marta bolalarning quyidagi huquqlarini mustahkamladi:**



ism va fuqarolik huquqi, ota-onalar va jamiyat tomonidan g'amxo'rlik qilish va mehr-muhabbat berish huquqi;



bolalarni qarovsizlik, shafqatsizlik va ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan himoya qilish huquqi;



ta'lim olish huquqi, rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga alohida munosabatda bo'lish va boshqa huquqlar.

Biroq, avvalgi hujjatlar kabi, Bola huquqlari deklaratsiyasi faqat maslahat xarakteriga ega edi.

**BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyasini** tayyorlash bo'yicha ishlar 1979-yildan 1989-yilgacha o'n yil davom etdi.

Davlatlar uchun huquqiy majburiy bo'lgan xalqaro hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish Polsha hukumatining tashabbusi edi.

Konventsiya loyihasini tayyorlashda ko'plab odamlar, jumladan, turli davlatlar vakillari, xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, ekspertlar ishtirok etdi.

Buning boshlang'ich nuqtasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratasiyasining 20 yilligiga bag'ishlab, **1979-yilni "Xalqaro bola yili" deb e'lon qilinishi bo'ldi.**




*Xalqaro bolalar yili logotipi 1979-yil.*

Bu xalqaro hamjamiyat e'tiborini o'sha davrda dolzarb bo'lgan bolalar muammolariga qaratishga yordam berdi.

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyasi **1989-yil 20-noyabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan**.

Hujjat 1990-yil 2-sentyabrda ma'lum bir qator davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinganidan keyin (uni majburiy deb e'tirof etilganidan keyin) yuridik kuchga ega bo'ldi.




Konventsiya eng ko'p davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro huquqiy hujjatdir. Bu Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan **196 ta davlat** va hududlar Konventsiyaga a'zo ekanligini anglatadi.



Bundan tashqari, Konventsiya noyob hujjatdir, chunki u insoniyat tarixida birinchi marta **bolalarning siyosiy, fuqarolik, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy huquqlarini aks ettirdi**.

Konventsiya ushbu hujjatni majburiy deb tan olgan davlatlar o'z hududidagi barcha bolalarga taqdim etishi kerak bo'lgan **huquqlarning minimal ro'yxatini taqdim etadi**.



BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyasi dunyoning turli mamlakatlari madaniyati va huquqiy tizimlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlangan.

Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya qabul qilingandan so'ng, konventsiyalarga fakultativ protokollar ishlab chiqildi.

2000-yil 25-mayda **BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga bolalarni qurolli to'qnashuvlarga jalb etish to'g'risidagi fakultativ protokoli** va **BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga bolalarni sotish, bolalar fohishaligi va bolalar pornografiyasi to'g'risidagi fakultativ protokoli** qabul qilindi.



2011-yil 19-dekabrda **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga aloqa tartibi to'g'risidagi fakultativ protokoli qabul qilindi.**

Har uchala xalqaro hujjat ham bolalar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va huquqlari buzilgan bolalarga yordam ko'rsatishga qaratilgan.

O'zbekiston 1994-yilda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyasiga qo'shilgan. O'shandan beri O'zbekiston KonVENTsiya me'yorlarining O'zbekiston ichki qonunchiligining bir qismiga aylani-shini ta'minlash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirdi.



### **BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konVENTsiyasining mazmuni**

KonVENTsiya preambula (kirish qismi) va ellik to'rt moddadan iborat. KonVENTsiyaning 42 moddasi bolaning o'ziga xos huquqlari va davlatlarning bola huquqlarini bajarish majburiyatları haqida ma'lumot beradi. KonVENTsiyaning qolgan moddalari KonVENTsiya qoidalarining bajarilishini nazorat qilish uchun yaratilgan maxsus organ BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi faoliyatiga va davlatlar KonVENTsiyaga qanday qo'shilishlari mumkinligiga bag'ishlangan.

Konvensiya bolani “**18 yoshga to’Imagan har bir inson**” deb belgilaydi. Bu inson bola deb hisoblanadigan yoshning universal ta’rifidir va shuning uchun Konvensiyada ko’rsatilgan bolaning barcha huquqlariga ega.

Konvensiya bolalarning o’z huquqlaridan foydalanishi uchun boshqa eng kam yoshni belgilamaydi, biroq u ishga joylashish uchun eng kam yoshni va jinoiy javobgarlikning eng kam yoshini belgilash qarorini davlatlar ixtiyoriga qoldiradi. Biroq, shu bilan birga, barcha bolalar, istisnosiz, Konvensiyada ko’rsatilgan huquqlar bilan ta’minlanishi kerak.



Konventsiya to'rtta asosiy tamoyilni nazarda tutadi. Ushbu tamoyillar bolaga yoki bolalar guruhiga ta'sir qiladigan har qanday qaror yoki harakatlarda qo'llanilishi kerak.

### **Konventsiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:**

1

**Kamsitilmaslik huquqi** va Konventsiyada ko'rsatilgan huquqlarni istisnosiz barcha bolalarga ta'minlash (Konventsiyaning 2-moddasi).

2

Ushbu qarorni kim qabul qilganidan qat'i nazar (otona, uning o'rnini bosuvchi shaxs, o'qituvchi, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi, sudyu yoki hukumat) bolaning **manfaatlarini alohida e'tiborga olish huquqi** (Konventsiyaning 3-moddasi).

3

**Yashash, bolaning maksimal darajada omon qolishi va rivojlanishi huquqi** (Konventsiyaning 6-moddasi).


4

Bolaning manfaatlariga daxldor bo'lган har qanday qarorni **eshitish huquqi** (Konventsiyaning 12-moddasi).

Ushbu to'rtta tamoyil juda muhim ahamiyatga ega, chunki ular bolalarga nisbatan har qanday qaror qabul qilishning asosiy mezonlarini belgilaydi. Bu qarorlar bolalarning oilalari ichida va oiladan tashqarida (masalan, maktabda, kasalxonada yoki sudda) qabul qilinadigan qarorlar bo'lishi mumkin.

Qabul qilingan qaror yuzasidan bola o'z fikrini bildira olishi hamda bunday imkoniyatga ega bolishi uning huquqlariga mos kelishi demakdir.

Konvensiyada aytilishicha, bola o'z fikrini mustaqil ravishda yoki o'z vakili (ota-onasi, bola ishonadigan shaxs, davlat organi vakili, advokat va boshqar shaxslar) orqali bildirishi mumkin.



Qaror bola yoki bolalar guruhini har qanday maqom (masalan, millati, tana terisining rangi, tili va boshqalar) tufayli o'z huquqlaridan foydalanishini cheklamasligi kerak va boshqa odamlar uchun nima yaxshi yoki qulay ekanligini emas, balki birinchi navbatda bola (yoki bolalar guruhii) uchun nima foydalii ekanligini aks ettirishi kerak.



Konvensiyada ko'rsatilgan barcha huquqlar bir xil ahamiyatga ega. Bu shuni anglatadiki, hech bir huquq boshqalardan ko'ra muhimroq yoki kamroq ahamiyatga ega emas.

Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar (davlatlar nomidan hukumatlar) o'z organlari va ushbu organlarda ishlaydigan odamlar orqali bolalarning barcha huquqlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qonuniy talabni qabul qiladilar.

Hukumatlar boshqa odamlarning bolaning huquqlarini hurmat qilishlarini va ularni buzmasligini ta'minlaydi (masalan, ota-onalar yoki ularning o'rnidagi odamlar, bolalarga sog'liqni saqlash yoki ta'lif xizmatlarini ko'rsatadigan odamlar).



Hukumatlar bolalar huquqlarini odamlar tomonidan buzilgan taqdirda himoya qilish uchun javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar. Bu bolalar va kattalar uchun (bolalar nomidan va bolalar uchun) o'z huquqlarini himoya qilish uchun davlat organlariga, sudsida yoki inson huquqlari mexanizmlariga (masalan, Bolalar Ombudsmani) murojaat qilish imkoniyatlarini anglatadi.

Bolalar o'z huquqlari bo'yicha bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak va ushbu huquqlar buzilgan taqdirda bolalarga tushunarli va bolalarga do'stona murojaat qilish vositalari yaratilishi kerak.



BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyasida mustahkamlangan barcha huquqlarini uchta katta guruhga bo'lish mumkin.

Ammo shuni yodda tutishimiz kerakki, bunday tasnif (bo'linish) juda shartli, chunki bitta huquq bir vaqtning o'zida bir nechta guruhlarga tegishli bo'lishi mumkin.

**Ushbu bo'linish har bir huquqning ma'nosini o'rganish  
va tushunish uchun qulaydir.**

1

Bolalarning yashash va rivojlanishi bilan bog'liq huquqlar.

2

Bolalarni himoya qilish bilan bog'liq huquqlar.

3

Bolalarning ishtiroki bilan bog'liq huquqlar.

## Bolalarning yashash va rivojlanishi bilan bog'liq huquqlari:



Bolalarning yashash, omon qolish va sog'lom rivojlanishi huquqi (**6-modda**).

Bolalarning fikr va his-tuyg'ularini og'zaki, yozma yoki boshqa shakllarda yoki rasmlar orqali erkin yetkazish huquqi, agar bu boshqalarga zarar yetkazmasa (**13-modda**).

Fikr, hayol va din erkinligi huquqi. Ota-onalar o'z farzandlarini ulg'aygan sari bu huquqdan to'g'ri foydalanishni o'rganishlari uchun yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin (**14-modda**).

Internet, radio, televidenie, gazeta, kitob va boshqa manbalardan axborot olish huquqi. Kattalar bolalar oladigan ma'lumotlar ularga zarar bermasligiga ishonch hosil qilishlari kerak (**17-modda**).



Har bir nogironligi bo'lgan bolaning jamiyatda maksimal qadr-qimmatga ega tarzda yashash huquqi (**23-modda**).

Imkoniyati bo'lgan eng yaxshi sog'liqni saqlash, toza ichimlik suvi, sog'lom oziq-ovqat va toza va xavfsiz muhitda yashash huquqi (**24-modda**).

Kam ta'minlangan oila farzandining moddiy yordam yoki boshqa yordam olish huquqi (**26-modda**).

Oziq-ovqat, kiyim-kechak va har tomonlama rivojlanishi uchun xavfsiz uyjoy olish huquqi. Hukumatlar ushbu huquqdan foydalanish imkoniyati bo'limgan oilalar va bolalarga yordam berishi kerak (**27-modda**).

Ta'llim olish huquqi. Maktabdagagi tartib-intizom bolalarning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilishi kerak. Boshlang'ich ta'llim bepul bo'lishi kerak (**28-modda**).

O'z tili, madaniyati va diniga ega bo'lish huquqi, garchi ulardan mamlakatda yashovchi aholining aksariyat qismi foydalanmasa ham (**31-modda**).

## Bolalarni himoya qilish bilan bog'liq bolalar huquqlari:

Barcha bolalarning kimligidan, qayerda yashashidan, qaysi tilda gaplashishidan, qaysi dinga e'tiqod qilishidan, qarashlari qanday, tashqi ko'rinishi, o'ziga xosligidan, o'g'il yoki qiz, ularning nogironligi, boy yoki kambag'alligi, ularning kimligi, ota-onasi yoki oila a'zolarining nimaga ishonishi va nima qilishiga bog'liqligidan qat'i nazar, ularga berilgan huquqlardan teng foydalanish huquqi. Hech bir bolaga nohaq muomala qilinmaslik kerak. Buning uchun hech qanday asos yo'q (**2-modda**).

Qaror qabul qilish jarayonida, kattalar o'zlarining qarorlari bolalarga qanday ta'sir qilishi haqida o'yashlari kerak. Kattalar qiladigan har bir narsa bolalar manfaatlariga qaratilgan bo'lishi kerak (**3-modda**).

Ismga bo'lgan huquq, tug'ilgandan keyin darhol ro'yxatdan o'tish va fuqarolik (muayyan davlatga tegishli) huquqi. O'z ota-onasini bilish huquqi va ular tomonidan g'amxo'rlik qilinish huquqi (**7-modda**).





O'z shaxsiyigini saqlab qolish huquqi (ularning kimligi, shu jumladan ism-sharifi, fuqaroligi va qarindoshlik aloqalari to'g'risidagi rasmiy yozuv) **(8-modda)**.

Ota-onadan ajralmaslik huquqi, agar ota-onada tomonidan bolaga tegishli g'amxo'rlik ko'satilmasa, masalan, ota-onada farzandiga nisbatan zo'ravonlik yoki beparvolik qilmasa. Ota-onasi alohida yashaydigan bolalar ham ota, ham ona bilan bevosita aloqada bo'lislari shart, bundan bolaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hollar bundan mustasno **(9-modda)**.

Bolalarni mamlakatdan noqonuniy olib chiqib ketishdan himoyalanish huquqi, masalan, kimdir tomonidan o'g'irlab ketilishi yoki otaonadan biri tomonidan bolani chet elga olib ketishi yoki ota-onadan biri tomonidan chet elda ushlab turilishi, agar ota-onadan biri bunga o'z roziliginini bermagan bo'lsa **(11-modda)**.

Maxfiylik huquqi. Qonun shaxsiy va oilaviy hayotni, uy-joy, aloqa va bolalarning obro'sini (yoki yaxshi nomini) har qanday hujumdan himoya qilishi kerak **(16-modda)**.

Bolaga g'amxo'rlik qilayotgan har qanday shaxs tomonidan zo'ravonlik, be-shafqat munosabat va beparvolikdan himoyalanish huquqi **(19-modda)**.

O'z oilasi tomonidan g'amxo'rlik qila olinmaydigan har bir bolaning dini, madaniyati, tili va uning hayotining boshqa jabhalarini hurmat qiladigan odamlar dan munosib g'amxo'rlik olish huquqi (**20-modda**).

Qochqin bolaning yordam va himoya olish huquqi (**22-modda**).

Sog'likka xavf tug'diradigan yoki ularning ta'lim olishi yoki rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan ishlarni bajarishdan himoyalanish huquqi (**32-modda**).


Ekspluatatsiyaning (foydalanimishning) boshqa barcha shakllaridan himoyalanish huquqi, garchi ular ushbu Konvensiyada ko'rsatilmagan bo'lsa ham (**36-modda**).

Kattalar bilan birgalikda o'lim jazosi, qyynoqlar, shafqatsiz muomalalar, umrbod qamoq va ozodlikdan mahrum qilinishdan himoyalanish huquqi (**37-modda**).

Jinoyat qonunini buzganlikda gumon qilinayotgan, ayblanayotgan yoki aybdor deb topilgan bolalarning huquqlari (**40-modda**).



## Bolalarning ishtiroki bilan bog'liq bolalar huquqlari:



Bolalarga taalluqli masalalar bo'yicha o'z fikrlarini erkin bildirish huquqi. Kattalar bolalarni tinglashlari va jiddiy qabul qilishlari kerak (**12-modda**).

Bolalarning guruhlarga yoki tashkilotlarga qo'shilish yoki guruh yoki tashkilotlarni tuzish, boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish huquqi, agar bu boshqalarga zarar yetkazmasa (**15-modda**).

O'z tili, madaniyati va diniga ega bo'lish huquqi, garchi ulardan mamlakatda yashovchi aholining aksariyat qismi foydalanmasa ham (**30-modda**).

Bolalar nafaqat huquqlarga, balki majburiyatlarga ham ega ekanligini unutmaslik kerak. Masalan, bolalar boshqa bolalar va odamlarning huquqlarini hurmat qilishlari kerak.

Bu boshqa bolalarga, ayniqsa jismonan zaifroq bo'lganlarga zarar bermaslikni anglatadi. Bolalar o'z sog'lig'i va shaxsiy gigiyenasiga g'amxo'rlik qilishlari kerak.



Ular sigaret chekish yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilish kabi yomon odatlarga ega bo'lmasligi kerak, bu ularning sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin.



Bolalar mакtabda yaxshi o'qishlari va har doim yangi bilimlarni olishga intilishlari kerak.



## Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyaning ma'nosi:

Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya butun dunyoda bolalar huquqlari hurmat qilinishi va himoya qilinishini ta'minlashda juda muhim rol o'yndaydi. U ko'plab mamlakatlarda bolalar huquqlari sohasidagi qonunlarning qabul qilinishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.



Konventsiya tufayli bolalarga bo'lgan munosabat o'zgardi va bolalar huquq egasi ekanligi va ularning huquqlari har qanday holatda ham hurmat qilinishi kerakligi haqida tushuncha paydo bo'ldi.

Konvensiya bolalarni turli sohalarda himoya qiladi. U uyda, maktabda va barcha muassasalarda bolalarga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida ma'lumot beradi.

U ishlaganda, shuningdek, huquqbuzarlik bilan bog'liq holda odil sudlov tizimi bilan aloqada bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish uchun minimal kafolatlar beradi.



Konvensiya bolalarning ayrim toifalari, shu jumladan qochqin bolalar (turli sabablarga ko'ra boshqa mamlakatlarga ketishga majbur bo'lgan), turli shakldagi nogironligi bo'lgan bolalar, ota-onalari va yaqinlarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini kafolatlaydi.

Konventsiya xalqaro hujjat bo'lib, milliy qonunlar uchun standart bo'lib xizmat qiladi.

Konventsiyanı ratifikasiya qilgan yoki unga qo'shilgan barcha davlatlar bolalar oldida, shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldida o'z qonunchiligini ushbu va boshqa xalqaro hujjatlarga muvofiqlashtirish majburiyatiga ega.



O'zbekistonda Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya qoidalari ko'plab qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qiluvchi asosiy qonunlaridan biri **O'zbekiston Respublikasining 2008-yilda qabul qilingan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunidir.**

Ushbu qonun Bola huquqlari to'g'risidagi konventsyaning asosiy qoidalarini o'zida mujassam etgan va bolalarni har qanday huquqbu-zarlikdan himoya qiladi.



Bundan tashqari, 2023-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining muhim qismi sifatida e'tirof etilgan.

Yevropa Ittifoqi zamонавиу nou-xaular, resurslar va taqdirlarini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lган mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlarituzildi. Adliyavazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz sheriklarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birgalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib borib, bunda bizning asosiy e'tiborimiz dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini humrat qiladigan dunyoga o'z qarashlarini amalga oshirish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyat, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.

### **Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi**

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu

Website: [www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan\\_en](http://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en)

Facebook: [www.facebook.com/edudeluzb](https://www.facebook.com/edudeluzb)

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi**

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: [info@adliya.uz](mailto:info@adliya.uz)

Website: [www.adliya.uz](http://www.adliya.uz)

### **BMning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi**

Poytakht Business Markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: [tashkent@unicef.org](mailto:tashkent@unicef.org)

Website: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>